

## O‘QUVCHILARDA IJODKORLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI

*Fayzullayeva Dilnavoz Jahongir qizi*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi yo‘nalishi*

*2-bosqich talabasi*

**Annotation:** Ushbu maqolada tasviriy san’atning o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishdagi roli va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola, ta’lim jarayonida tasviriy san’at orqali o‘quvchilarning badiiy tafakkurini, estetik didini, ijodiy yondashuvini rivojlantirishga yordam beruvchi metodik yondashuvlar va zamonaviy pedagogik tamoyillarni ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** Tasviriy san’at, ijodkorlik, STEAM ta’limi, badiiy tafakkur, estetik did, mustaqil fikrlash, innovatsion yondashuvlar, pedagogik metodlar, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik.

Bugungi kunda ta’lim jarayonining asosiy maqsadi – o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish bilan birga, ularning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish, mustaqil fikrlash va yangi g‘oyalalar yaratish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Ayniqsa, tasviriy san’at kabi estetik va badiiy yo‘nalishdagi fanlar bu maqsadlarga erishishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki san’at orqali nafaqat tasviriy ko‘nikmalar, balki dunyoni estetik qabul qilish, ichki his-tuyg‘ularni ifodalash, noan’anaviy fikrlash va yangicha yondashuvlar ilgari surish kabi muhim sifatlar shakllanadi.

O‘quvchilarning tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish, ularni o‘z fikrini rasm va kompozitsiya orqali ifodalashga o‘rgatish, ijodiy erkinlik muhiti yaratish orqali ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Bu esa ijodkorlik ko‘nikmalarining asosiy tarkibiy qismlari – tasavvur, ifoda, tajriba va badiiy tafakkurni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tasviriy san’at ta’limi o‘quvchilarda badiiy tafakkur, estetik did, ijodiy yondashuv va mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Pedagogik nazariyada ijodiy faollikni shakllantirishda san’atning roli ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Masalan, J. Deweyning tajriba va ijodiy yondashuvlar asosida o‘rgatish tamoyillari, L. Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasasi” nazariyasi, va P. Freirening ijodiy jarayonni rivojlantirishga oid g‘oyalari san’at ta’limini o‘quvchilarning salohiyatini eng yuqori darajada rivojlantirishda yordam beradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar, shuningdek, STEAM (Fan, Texnologiya, Muhandislik, San’at va Matematika) integratsiyalashuvi o‘quvchilarda ijodkorlikni

rag‘batlantirish uchun samarali model bo‘lib xizmat qiladi. Klaster yondashuvi, o‘z navbatida, o‘quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon yaratadi, chunki bu yondashuv o‘quvchilarni turli mavzularda hamkorlikda ishlashga undaydi.

STEAM ta’limini tatbiq etishning asosiy maqsad va rivojlanish yo`nalishlari S – science tabiiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar, T – technology-texnologiya, E – engineering muhandislik grafikasi, A – art-san’at, M – math-matematika yo`nalishlarini o`z ichiga qamrab oladi.<sup>1</sup>

Tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchilarda yaratish, muammolarni hal qilish va yangiliklarni kashf etish ko‘nikmalari shakllanadi. Bunday yondashuvlar o‘quvchilarda o‘z fikrlarini tasvirlash, kompozitsiyalar yaratish va badiiy materiallarni estetik tarzda talqin etish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, STEAM asosidagi ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini turli fanlar o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatgan holda yangi va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishda mustahkamroq tayyorlanadilar.

Tasviriy san’at orqali o‘quvchilarda ijodkorlik va estetik fikrlashni shakllantirish, ularni ilg‘or pedagogik metodlar yordamida rag‘batlantirish, ularning fikrlash, tasavvur qilish va mustaqil ijodiy yondashuvlarni rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy va badiiy salohiyatlarini ro‘yobga chiqarish va ularga ilmiy va badiiy yondashuvlarni birlashtirishga imkon beradi.

Maktabda tasviriy san’atning turlari - rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik va dekorativ san’at asarlari bilan yanada chuqurroq tanishtirilishi kerak. Maktabgacha ta’lim va maktablarda tasviriy san’at, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, qobiliyatlarini ochish, fikrini mustaqil bildira olish, muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, nutqini yaxshilash, atrof muhitga mehr uyg‘otish, ruhini tetiklashtirish, tabiat bilan uyg‘unlashishga yordamlashadi. Maktabda bolalarni tayyorlashda tasviriy faoliyat katta ahamiyatga ega. Rasm, haykaltaroshlik materiallari bo‘yicha bilim, malakalarini egallash maktabda tasviriy faoliyat darslarini qilish bolalarning ongida katta ko‘nikma hosil qiladi.<sup>2</sup>

Maktabda tasviriy san’at darslari orqali o‘quvchilarda nafaqat badiiy ko‘nikmalar, balki ijodiy tafakkur ham rivojlanadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, bolalarda tashabbuskorlik, yangilikni qabul qilish va estetik qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Tasviriy san’atga oid darslar o‘quvchilarda turli fikr va g‘oyalarni sinovdan o‘tkazish, o‘z tasavvurlarini aks ettirish imkoniyatini beradi.

<sup>1</sup> Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta’limini tatbiq etish orqali tasviriy san’at fanini o ‘qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O ‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(18), 187-193.

<sup>2</sup> Berdiyev, D. A. (2024). *Tasviriy san’at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish*. Pedagogs, 51(1), 112–114.

Shuningdek, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik kabi san'at turlarining har birining o'ziga xos metodikasi va pedagogik ahamiyati mavjud. Masalan, rangtasvir o'quvchilarda rang va kompozitsiya asoslarini tushunishga yordam beradi, grafika esa chizmachilik va tasvirlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Haykaltaroshlik va dekorativ san'at esa, o'z navbatida, tasavvur va fikrlarni hajm va shakl orqali ifodalashga yordam beradi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lif muassasalarida va boshlang'ich ta'lif bosqichlarida tasviri san'atni rivojlantirish, bolalarning tafakkurini kengaytirish va ularni turli rangdagi fikrlashga tayyorlash muhimdir. Bu jarayonlar bolalarga nafaqat badiiy ta'lif, balki ko'p qirrali shaxs sifatida rivojlanish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarini ham beradi. Bunda, ularning nafaqat ijodiy, balki intellektual faolliklarini ham oshirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, tasviri san'at o'quvchilarda ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib, nafaqat estetik didni, balki mustaqil fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonlar orqali o'quvchilarning badiiy va ijodiy salohiyatini eng yuqori darajada rivojlantirish mumkin.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Abduvoitovich, B. D. (2023). Steam ta'lmini tatbiq etish orqali tasviri san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(18), 187-193.
2. Berdiyev, D. A. (2024). *Tasviri san'at orqali bolalarda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish*. Pedagogs, 51(1), 112–114.
3. Berdiyev, D. A. (2022). Maktablarda tasviri san'at fanini o'qitishda kelajak ta'lifi steam interaktiv ta'lmini rivojlantirish. *Science and Education*, 3(2), 687-690.
4. Bahromova Dilfuza Akramjonovna Tasviri san'at darslarida yangi texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati. (2024). Yangi O'zbekiston Taraqqiyotida Tadqiqotlarni o'rni Va Rivojlanish Omillari, 11(1), 160-164.
5. Berdiyev Doston Abduvoitovich,Baxromova Dilfuza Akramjonovna. (2024). O'quvchilarda kasbiy va hayotiy ko'nikmalarini shakllantirish. *IQRO INDEXING*, 11(02), 430-433.